

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 210 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	205
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	



UDK 338.45:330.43

MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Abdinazarov Xusan Shaymanovich

Qarshi davlat texnika universiteti,
"Biznes va boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi
[ORCID: 0009-0002-1464-9428](https://orcid.org/0009-0002-1464-9428)
E-mail: xabdunazarov0770@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaq sanoati tarkibida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, xususan qayta ishlash sanoati ulushining ortishi, investitsion faollik darajasi, sanoatda bandlik va eksport ko'rsatkichlarining yalpi hududiy mahsulot o'sishiga ta'siri ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqot jarayonida ko'p omilli regressiya modeli asosida asosiy omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sir darajasi aniqlangan. Olingan tahlil natijalari O'zbekiston sharoitida mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirishda tarkibiy islohotlarning muhim va ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mintaq sanoati, investitsion faollik, tarkibiy transformatsiya, iqtisodiy barqarorlik, ekonometrik model, sanoat siyosati.

Abstract. This article provides a scientific assessment of structural changes in regional industrial sectors, particularly the increase in the share of manufacturing industries, investment activity, employment, and export indicators, and their impact on the growth of gross regional product. Using a multiple regression model, the degree of influence of key factors on economic growth is determined. The results of the analysis demonstrate the significant importance of structural reforms in improving regional industrial policy in the context of Uzbekistan.

Keywords: regional industry, investment activity, structural transformation, economic stability, econometric model, industrial policy.

Аннотация. В статье проведена научная оценка структурных изменений в отраслях региональной промышленности, в частности роста доли обрабатывающей промышленности, уровня инвестиционной активности, занятости и экспортных показателей, а также их влияния на рост валового регионального продукта. В ходе исследования с использованием многофакторной регрессионной модели определена степень воздействия ключевых факторов на экономический рост. Результаты анализа свидетельствуют о значимой роли структурных реформ в совершенствовании региональной промышленной политики Республики Узбекистан.

Ключевые слова: региональная промышленность, инвестиционная активность, структурная трансформация, экономическая устойчивость, эконометрическая модель, промышленная политика.

KIRISH

Mamlakatimizda mintaq iqtisodiyoti va sanoatining izchil rivojlanishi aholining bandlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu yo'nalishni zamonaviy usullar asosida modernizatsiya qilish hamda sanoat mahsulotlarini diversifikatsiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mintaqa sanoatining tarkibiy transformatsiyasi sanoat ishlab chiqarish dinamikasini rivojlantirish, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish va natijada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 58,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalarining eng katta ulushi oziq-ovqat sanoatiga to'g'ri kelib, mazkur yo'nalishda 11,7 mingta korxona faoliyat ko'rsatmoqda

va ularning ulushi 20 foizni tashkil etadi. Shuningdek, nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi 8,2 mingta korxona bilan 14 foiz ulushga ega. Kiyim ishlab chiqarish tarmog'ida 5,8 mingta korxona faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Metall buyumlar ishlab chiqarish 4,7 mingta korxona bilan 8,1 foiz, mebel ishlab chiqarish esa 4 mingta korxona bilan 6,9 foiz ulushga ega. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida 3,6 mingta korxona faoliyat yuritib, ushbu yo'nalishning umumiy ulushi 6,2 foizni tashkil etmoqda.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish barqarorligi va samaradorligi bevosita mintaqa sanoatining tarkibiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xomashyo yo'naltirilgan ishlab chiqarishdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega, innovatsion va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada mintaqa sanoatining tarkibiy transformatsiyasi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri ekonometrik modellashirish usullari asosida ilmiy jihatdan baholangan.

Sanoat tarkibini isloh qilish, eksport salohiyatini oshirish va mintaqalarda investitsion muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat va islohotlar doirasida iqtisodiyotda muhim tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-sonli qarori¹ hamda 2018-yil 25-dekabrda PQ-4077-sonli qarorida² ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, eksport salohiyatini oshirish va korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida³ davlat sanoat siyosatini amalga oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish hamda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu jarayonlar sanoatning texnik va texnologik yangilanishi asosida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyani ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mintaqa sanoat tarmoqlari tarkibining yangilanishi natijasida aholining turmush darajasi izchil yaxshilanib, sanoatda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, innovatsion muhitni rivojlantirish hamda zamonaviy infratuzilmalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda sanoat tarkibiy o'zgarishlari bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan. Xususan, endogen iqtisodiy o'sish nazariyalarida sanoat diversifikatsiyasi, texnologik yangilanish hamda investitsiyalarning faolligi iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari sifatida qaraladi. Mintaqaviy iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlarda esa sanoat tarkibining transformatsiyasi hududlararo iqtisodiy rivojlanish tafovutlarini qisqartirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Endogen iqtisodiy o'sish nazariyalari iqtisodiy rivojlanish jarayonining asosan ichki omillar ta'sirida shakllanishini asoslab beradi. Mazkur yondashuv XX asrning 80-yillarida Robert Lukas, Pol Romer va Kennet Errou kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya neoklassik Solow modeli bilan solishtirilganda, iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida davlat siyosati, innovatsiyalar va inson kapitalining roliga alohida e'tibor qaratadi.

Mazkur yo'nalish doirasida respublikamiz olimlari tomonidan ham qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Olimov Sh. tomonidan mintaqa iqtisodiyoti tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati tahlil qilingan bo'lib, unda asosan mintaqada iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilgan. Shu bilan birga, mintaqa sanoatini rivojlantirishda investitsion muhit darajasi, sanoat diversifikatsiyasi va zamonaviy infratuzilmalarni joriy etish masalalari yanada kengroq tadqiq etilishi zarurligi kuzatiladi.

Hozirgi davrda mintaqalarda mavjud sanoat tarmoqlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida tizimli logistika infratuzilmasini rivojlantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish, yangi infratuzilmalarni raqamlashtirish, texnologik modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali sanoatni zamonaviy asosda rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqa sanoat ishlab chiqarish zonalarini baholashda zamonaviy ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik tahlil jarayonida mintaqaning sanoat rivojlanish holatini aks ettiruvchi yillik statistik ma'lumotlar asos qilib olindi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.04.2024 yildagi PQ-163-son <https://lex.uz/uz/docs/-6898721>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2018 yildagi PQ-4077-son <https://lex.uz/uz/docs/-4128561>.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.01.2023 yildagi PF-14-son <https://lex.uz/uz/docs/-6369997>.



Tadqiqot modelida yalpi hududiy mahsulot iqtisodiy o'sishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida belgilandi. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, sanoatda bandlik darajasi hamda sanoat mahsulotlari eksporti iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv mintaqa sanoati rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'sirini kompleks va ilmiy asoslangan holda baholash imkonini beradi.

Ko'p omilli regressiya modeli quyidagi ko'rinishda ifodalandi:

$$YHM = \beta_0 + \beta_1 SI + \beta_2 INV + \beta_3 EMP + \beta_4 EXP + \epsilon$$

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekonometrik tahlil natijalari sanoat ishlab chiqarish hajmi va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, qayta ishlash sanoati ulushining oshishi yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtirgani aniqlandi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari eksporti hajmi va sanoatda bandlik darajasi ham mintaqa iqtisodiy rivojlanishida muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi. Olingan empirik natijalar sanoatning tarkibiy transformatsiyasi mintaqa iqtisodiy o'sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Mintaqaviy sanoatni modernizatsiyalash jarayonlari doirasida sanoatning texnologik tarkibida ham ijobiy strukturaviy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, 2024–2025-yillarda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 1,1 foizdan 1,3 foizgacha, o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi esa 17,4 foizdan 19,2 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, o'rta-quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 29,0 foizdan 42,7 foizgacha kengaygan bo'lsa, quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 52,5 foizdan 36,8 foizgacha qisqargan. Mazkur o'zgarishlar sanoatni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya jarayonlarini jadallashtirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. 2021–2025-yillarda mintaqa sanoatining ishlab chiqarish hajmi va texnologik tarkibi dinamikasi

Yil	Sanoat mahsulotlari (mlrd so'm)	Fizik hajm indeksi (%)	Kichik biznes ulushi (%)	Yuqori texnologiya (%)	O'rta-yuqori (%)	O'rta-quyi (%)	Quyi (%)
2021	18771,9	115,4	25,9	0,9	15,2	25,6	58,3
2022	22624,4	110,1	25,9	1,0	16,0	26,9	56,1
2023	28767,7	107,4	21,9	1,1	16,8	28,1	54,0
2024	39116,8	106,8	35,4	1,1	17,4	29,0	52,5
2025	40 860,9	106,9	40,4	1,3	19,2	42,7	36,8

2021–2025-yillar davomida Qashqadaryo viloyati sanoatining texnologik tarkibida sezilarli strukturaviy o'zgarishlar kuzatildi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davr boshida sanoat ishlab chiqarishida quyi texnologiyali tarmoqlar ustunlik qilgan bo'lib, ularning ulushi 2021-yilda 58,3 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda mazkur ko'rsatkich izchil qisqarib, 2025-yilga kelib 36,8 foizgacha kamaygan.

Shu bilan birga, o'rta-quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 2021–2025-yillar davomida 25,6 foizdan 42,7 foizgacha oshgan. Ushbu holat qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari hamda oziq-ovqat sanoatida modernizatsiya jarayonlarining faollashganini ko'rsatadi. O'rta-yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari ulushi ham ijobiy tendensiyaning namoyon etib, 2021-yildagi 15,2 foizdan 2025-yilda 19,2 foizgacha yetgan. Yuqori texnologiyali sanoat ulushi esa mazkur davr mobaynida nisbatan barqaror saqlanib, 1,1 foizdan 1,3 foizgacha oshgan bo'lsa-da, bu holat hudud sanoatida innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud ekanini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalari soni dinamikasi (2021–2025 yy. 1-dekabr holati)

Yil	Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni (dona)	Jami yangi tashkil etilgan korxonalar soni (dona)
2021	4 679	1 291
2022	5 503	1 478
2023	3 990	863
2024	3 222	685
2025	2 918	536

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida jami 2 884 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ulush oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga to'g'ri kelib, mazkur yo'nalishda 613 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda va bu umumiy sanoat korxonalarining 21,3 foizini tashkil etadi. Shuningdek, boshqa nonmetall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida 561 ta (19,5 foiz), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sohasida 284 ta (9,8 foiz), kiyim ishlab chiqarish sohasida 246 ta (8,5 foiz), tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turlarida 241 ta (8,4 foiz), mebel ishlab chiqarish sohasida 183 ta (6,3 foiz) hamda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida 165 ta (5,7 foiz) korxona faoliyat yuritmoqda.

2025-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ma'lumotlarga ko'ra, viloyat sanoat korxonalari tomonidan jami 37 185,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,8 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolayotganini ko'rsatadi [7].

Bundan tashqari, 2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 158 tani tashkil etgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mazkur korxonalarning eng katta qismi sanoat sohasiga to'g'ri kelib, ushbu yo'nalishda 65 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 36 ta hamda savdo sohasida 27 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoatini modernizatsiya qilish, uni diversifikatsiyalash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tarmoqlar texnologiyalarini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini tizimli qo'llab-quvvatlash mintaqaviy sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

Mintaqa sanoatining barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish maqsadida, avvalo, qayta ishlash sanoati ulushini oshirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini kengaytirish zarur. Yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish uchun innovatsion infratuzilmalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hamda sanoatda bandlikni rag'batlantiruvchi hududiy dasturlarni takomillashtirish mintaqaviy sanoat siyosatini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-sonli "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6898721>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrda PQ-4077-sonli "Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash jarayonini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4128561>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6540957>.
4. Solow, R. A Contribution to the Theory of Economic Growth. Springer. <https://link.springer.com/>.
5. Economic Development and Structural Transformation. NBER Working Paper. <http://www.nber.org/papers/w18996>.
6. Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi. Rasmiy ma'lumotlar. <https://qashstat.uz/uploads/press25>.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100